

**DUNYOGA DONG TARATGAN MUARRIX MUSAVVIRI
MUHAMMAD MUROD SAMARQANDIY...**

*Qoraqolpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti tarix yo'nalishi
3- bosqich talabasi Ollamova Dinara Oybek qizi
dinaraollamova9@gmail.com*

Annotatsiya:

Tarixni o'zining mo'jaz qalamlari ostida tasvirlay olgan mo'yqalam sohibi Muhammad Murod Samarqandiydir. Movarounnahrda yashab o'tgan rassomlar ichida asarlari bizgacha eng ko'p yetib kelgan rassomdir. Samarqand miniatyura doirasi taraqqiyotida mashhur musavvir xissasi katta bo'ldi.

Kalit so'zlar: *Miniatyura, N.Nizomiddinov, A.Ashrafiy, “Shohnoma”, Firdavsiy, “Shahanshohlik muraqqa'si”.*

Samarqandda kitobat san'atining rivojlanishi bilan XVI XVIII asrarda yanada davom ettirilishi va o'ziga xos bir miniatyura maktabi vujudga keldi. Samarqand miniatyura doirasi taraqqiyotida mashhur musavvir Muhammad Murodning xissasi ayniqlashtirilishini kattadir. Islom dinida bunday iste'dod egalari, diniy xurofotlarning kuchliligi bois o'z Vatanida erkin ijod eta olmadilar. (Ma'lumki, u vaxtlari dinda jonzotlarni, tabiat manzaralarini, sarbozlarni xususan, inson tashqi ko'rinishini uning tasvirini ifodalash chizish taqiqplanardi. Bu ayniqlashtirilishi Movarounnahrda shayboniyalar sulolasi davrida yanada kuchayib ketgan edi. Lekin Ashtarxoniyalar sulolasi vakillari kelishi bilan bu vaziyat biroz yumshagan. Ashtarxoniy hukumdonlar Imomqulixon ilm-fan, san'atga homiylik ko'rsatadi, san'at ustaxonalari ishlangan). Bu bosimni sezgan rassom yaqinlari bilan Hindistonga ketishga majbur bo'lган. U tarafda shunday bir muhit yaratildiki, hatto maktablar yaratilib, u yerdan o'nlab musavvirlar yetishib chiqa boshladi.

Muhammad Murodning bizgacha saqlanib qolgan asarlari 200 dan ortiqdir. Jumladan, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”siga , Sa'diyning “Bo'ston” (Chester Bitti Kutubxonasi, Dublin) asarlariga chizilgan miniatyuralar mavjud. “Shohnoma” tasvirlari O'zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1811 raqamidagi dasxat tarkibida saqlanadi.

Hindistonga kelgan (ba'zi manbalarga ko'ra Akbar, ba'zi manbalarga ko'ra Jahongir saroyiga) rassom Boburiylar sulolasining “Shahanshohlik muraqqa'sini” (Imperiya albomi) ni tuzgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra Muhammad Murodning ushbu safaridan so'ng o'z miniatyuralar uslibini o'zgorganini qayd etishdi. Lekin ayni paytda Markaziy Osiyo - Fors an'analarida bu aloqa saqlanib qolindi.

Amerikalik tadqiqotchi, Robert Skelton Muhammad Murod Samarqandiy nafaqat miniatyurachi balki, ajoyib chizmachi ham bo’lgan degan xulosaga kelgan.

Musavvir ijodida ko’zga ko’rinadigan noodatiy narsa, badiiy hamkorlik mahsulining yuzaga chiqishi. Muhammad Nodir, Muhammad Sherif kabi yuksak iste’dod sohiblari bo’lgan musavvirlar bilan bir qatorda bo’lgan Murod Samarqandiy ko’plab tasvirlarni abadiylikka muhlashdi.

Homidjon Homidiy malumotlariga ko’ra, Tasviriy san’at olamida “chehrakusholar sarvari”, “Sharq Rafaeli deb dong taratgan Kamoliddin Behzodning nafisligu, bokira ko’tarinkilik ruhini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan san’atkordir.

Muhammad Murod Samarqandiy hayotiy va ijodiy me’rosini topish va o’rganishda professorlar I. Nizomiddinov M. Ashrafiylarning xizmati katta.

Xulosa shuki, Muhammad Murod Samarqandiy sharq tasviriy san’atining yorqin namoyondasidir. Musavvir ijodi maxsus o’rganishga arzirli meros uning yaratgan asarlari bugungi kunda nafaqat tasviriy san’at, tarix va adabiyot uchun ham katta xazina manbayidir. Musavvirning yaratgan ta’svirlarini miniatyuralarini alohida bir albomga jamlansa, nashr qilinsa nur ustiga a’lo nur bo’lar edi. Buning uchun tasvirlarni yanada yorqinroq, aniqroq yaratishda zamonaviy aparatlardan foydalangan ham ma’quldir.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. Пугашенкva Г. Галеринка О. Миниатюри Средей Азии М.1979 стр.33 108 -117
2. Полякова Е.А. Рахимова З.И. Миниатюра и Литература Востока Ташкент 1987, илл. 85-88 стр 239
3. Homidjon Homidiy “Daholar davrasi” Toshkent .2018 y. 343 bet.
4. Muhammad Sharif va Muhammad Murod Samarqandiy “ Kitobli yigit” 1600-1630, Parij, Luvr.
5. www.yuz.uz
6. www.arxiv.uz
7. www.wikipediya.ru